

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XAITOVA YULDUZ UKTAMOVNA

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA IJODKOR SHAXS RUHIYATI
VA BADIY TALQIN UYG‘UNLIGI**

(Ra‘no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy asarlari misolida)

10.00.02- O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Philology Sciences**

Xaitova Yulduz Uktamovna

Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg‘unligi (Ra‘no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy asarlari misolida).....3

Хайтова Юлдуз Уктамовна

Гармония психики творческой личности и художественной интерпретации в современной узбекской поэзии (на примере произведений Рано Узаковой и Шафоата Рахматуллы Термизи).....26

Khaitova Yulduz Uktamovna

Harmony of the psyche of a creative personality and artistic interpretation in modern Uzbek poetry (based on the works of Rano Uzakova and Shafoat Rahmatulla Termizi).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works56

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XAITOVA YULDUZ UKTAMOVNA

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA IJODKOR SHAXS RUHIYATI
VA BADIY TALQIN UYG‘UNLIGI**

(Ra‘no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy asarlari misolida)

10.00.02- O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2861. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www. tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pardayev Qo‘ldosh Uzaqovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Bahodir Nurmetovich
filologiya fanlari doktori, professor

Davlatova Adiba Rahmatovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “____” _____kuni tarqatildi.
(2024-yil “____” _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.f.d., professor

S.X.Muhamedova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiy-estetik tafakkuri tarixida badiiy asar tahliliga xos muammolarni ijodkor shaxs ruhiyati kontekstida o'rganish, teran anglash zarurati bugungi filologiya sohasida jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'yayotir. Badiiy adabiyotda ijodkor shaxs ruhiyati masalasi she'riyatda maktab yaratgan shoirlar lirikasi misolida keng ko'lamda tadqiq etish, ular ijod laboratoriyasiga xos individual xususiyatlarni ochib berish adabiyotshunoslikda yangi ilmiy-nazariy xulosalarga olib kelishi jihatidan muhim ahamiyatga molik. Zero, nazmiy asarlarni aniq bir nazariy muammo asosida keng ko'lamli tadqiq etish jahon adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridandir.

Dunyo adabiyotida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg'unligi masalasini obraz va motivlar misolida yangicha tahlili va tarixiy evolyutsiyasini teran anglashga oid tadqiqotlar anchagina. She'riyatda ruhiyatning shakl transformatsiyasidagi o'rnini o'rganish muayyan davr poeziyasining spetsifik tabiatini aniqlashda ham muhim omildir. Ijodkor shaxs ruhiyatini tahliliy o'rganish jarayonida adabiy muhit, ijtimoiy-ma'naviy hayot muammolarini teran anglash, insonning poetik tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni adabiyotshunoslik oldidagi zamonaviy talablar darajasida izchil davom ettirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik davrida o'zbek she'riyatining poetik tafakkur tarzida maydonga kelgan namunalarni qayta ko'rib chiqish, yangilanayotgan uslubda lirik asarlarni o'ziga xos nazariy tamoyillar kontekstida o'rganish ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. "Buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan"¹. O'ziga xos uslubiy yo'nalishda ijod qilgan va qilayotgan shoirlar lirikasini shaxs ruhiyati muammosi kontekstida tizimli o'rganish zamonaviy o'zbek she'riyati haqida yangi nazariy xulosalar chiqarishga turtki beradi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar milliy ruh, buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ideal hayot yo'li, xalqona pafos, shaxsning ijtimoiy va individual psixologiyasi, davr madaniy aurasini poetik talqin ko'lamida yoritib berish imkoniyatini yuzaga chiqarmoqda. Tadqiqot obyekti sifatida olingan Ra'no Uzoqova XX asrning 30-40 yillarida ijod qilgan bo'lsa, Shafoat Rahmatulla Termiziy XX asrning 70- yillaridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrlarda ijod qildi. Bu ikki ijodkor she'riyatining dissertatsiya obyekti sifatida olinishini quyidagi jihatlar asosida izohlash mumkin: ular she'riyatida xalqchilik, Surxon koloritiga xos bo'lgan xususiyatlar, asarlarining tili tushunarli va soddaligi, ular lirikasida o'zining taqdiri, kechinmalari, oilaviy muhiti, ichki ruhiyati ifodalangan bo'lib, bir-biriga o'xshashligi va adabiyotshunoslikda maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligidir. Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziyning milliy

¹Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. //Халқ сўзи. – Тошкент: 2017 йил, 4 август.

adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnini, milliy ruh ifodasida xalqimizning ko'p asrlik og'zaki ijodi namunalari, mumtoz she'riyatimiz va jahon badiiy-estetik tafakkuri tajribalariga tayanishi, ijodkorlar she'rlarida millat ruhining ifodalanish usullari tadqiqini amalga oshirish o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida lirik asarlar bo'yicha yozilgan tadqiqotlarda badiiy obrazlar tabiati va talqini, mavzu ko'lami, lirik kechinmalar, ijodkor ruhiyati talqini yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan². Ammo Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy hayoti

² Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза(Адаий-танкидий мақолалар). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979; Гафуров И. Лириканинг юраги. Адабий ўйлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1982; Қахрамонов Қ. Адабий танкид: янгилаштириш жараёнлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Қахрамонов Қ. Қушдан илдири олдим қанотни гулдан // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2014. №16; Мамажонов С. Шеърят баҳсида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982; Акрамов Б. Шеърят гавҳари (Лирикада образ муаммоси). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979; Қурбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеърятда образлилик. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент: 2005; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърятда бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. (DSc) ...дис. автореф. – Тошкент: 2017; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; о'ша муаллиф. Адабиёт ва миллий маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2015; о'ша муаллиф. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; о'ша муаллиф. "Ўткан кунлар"да миллий рух ифодаси // Филология масалалари. – Тошкент: 2020, № 2. – Б. 35; Каримов Б. Жадид мунаққиди Вадуд Махмуд. – Тошкент: Университет, 2000; Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Ғаниев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2007; Йўлдошев Н. Шафоат Термизий: Имом Термизийга муножот // Буюк муҳаддис Абу Исо Термизий ва Термизийларнинг бой илмий-маънавий меросини ўрганиш. Халқаро илмий анжуман мақолалар тўплами. – Б. 133; Тажибаева Л. Янги ўзбек шеърятда генезиси ва тараккиёт тамойиллари. Филол.фан.б. фалс.док...дисс.автореф. – Урганч, 2023; Ўсарова Л. Абдулла Орипов шеърятда миллий рух ифодаси. Филол.фан.б. фалс.док...дисс.автореф. – Тошкент: 2020; Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Тошкент: 2022; Давлатова А. Абдулла Орипов шеърятда поэтик тафаккур тадрижи. Филол. фан. д-ри. (DSc) ...дис.– Тошкент: 2022.

va ijodi, ular she'riyatidagi obrazlar tizimi, ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg'unligi masalasi Istiqlol adabiyotshunosligida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas. Biroq shoirlar hayoti va ijod namunalari ba'zi qirralari o'rganilgan. Jumladan, Ra'no Uzoqova ijodini xalqqa yetkazishda samarqandlik Mardonqul Muhammadqulov va denovlik Toshtemir Turdiyevlarning xizmatlari katta bo'ldi. Sharof Rashidov, Nasrullo Oxundiy, Dushan Fayziy, Normurod Narzullayev, Abdug'afur Rasulovlar maqolalarida shoira hayoti va she'rlarining ba'zi qirralari tahlilga tortilgan³. Sh.Rashidov "Ra'no" maqolasida Ra'no Uzoqovaning oilaviy muhiti, ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma'lumot beradi⁴. S. Zununovning "Men Shafoatni tanidim (oq yo'l)", G.Nurullayevaning "Shafoat san'at sohibi", M. Mahmudovning "Shafoat – go'zal diyor farzandi" kabi bag'ishlov maqolalarida Shafoat Rahmatulla Termiziy she'rlarining xalqchilligi va ilk to'plami xususida fikrlar bildirilgan⁵. I.G'ofurovning "Bu – Shafoat Rahmatullayev" maqolasida shoirning ijodiy faoliyati, ruboiylari va ba'zi she'rlarining badiiyati haqida to'xtalib o'tadi⁶. Usmon Azimning "Сўнгсўзлар" nomli kitobidagi "Худо ёққан чироғим" maqolasida Shafoat Rahmatulla Termiziyning odamiyligi, she'riyatining yuksak saviyadaliigi xususida so'z yuritadi⁷. Eshqobil Shukurning "O'z yurtiga o'xshagan shoir"⁸, Sirojiddin Saidning "Shafoatning shifoati yoxud ozod so'z sevinchlari", Mahmud Abulfayzning "Yurak bir maromda kuylovchi bulbul" kabi bag'ishlov tarzda yozilgan she'r va maqolalarida Shafoat Rahmatulla Termiziyning odamiyligi, shoirlik mahorati haqida mulohazalar yuritilgan⁹. S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, B.Murtazoyevlarning "Сурхондарё тарих кўзгусида" to'plamida Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziyning biografiyasi, ijodi, birinchi to'plamlari va ba'zi she'rlarining tahlili keltirilgan¹⁰. A.Holmirzayev "Шоира юрган йўлларда" sarlavhali maqolasida Ra'no Uzoqovaning maktublarini ilk bor matbuotda e'lon qilgani va ularning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot beradi¹¹. N.Yo'ldoshev "Озод сўз изтироби (Шафоат Раҳматулло Термизий ижодига чизгилар)" maqolasida Shafoat Rahmatulla Termiziyning Vatan va millat mavzularidagi she'rlarini tahlilga tortadi¹². Sh.Murodov, S.Ashur, Sh. Salomov¹³ kabi ijodkorlar ham Shafoat Rahmatulla Termiziy she'riyatining ba'zi qirralari haqida mulohazalar bildiradi.

³ Турсунов С., Қобилов Э., Пардаев Т., Муртазоев Б. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 384.

⁴ Рашидов Ш. Раъно // Ёркин ҳаёт. – Тошкент, 1940. № 5-6.

⁵ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/shafoat-rahmatulloh-termiziyga-bagishlov.html>.

⁶ Фафуров И. Бу – Шафоат Раҳматуллаев // Гулистон. – Тошкент, 1980. № 10.

⁷ Азимов У. Сўнгсўзлар. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. – Б. 512.

⁸ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/shafoat-rahmatullo-termiziy-vatan-haqida-monolog-eshqobil-shukur-oz-yurtiga-oxshagan-shoir.html>.

⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shafoat-rahmatullo-termiziy-haqida-uch-maqola>.

¹⁰ Турсунов С., Қобилов Э., Муртазоев Б., Пардаев Т. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 608.

¹¹ Холмирзаев А. Шоира юрган йўлларда // Сурхон тонги (Ленин байроғи). – Термиз, 1971, 16 октябрь; Shu muallif. "Янги аср" радиоканалининг "Мозий бугуннинг нигоҳида" муаллифлик эшиттириши. – Термиз, 2019, 2020, 2022.

¹² Йўлдошев Н. Озод сўз изтироби (Шафоат Раҳматулло Термизий ижодига чизгилар) // Термиз университети. – Термиз, 2020; Шодмонқулов С. Дарёдаги ўйларим // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2021. 15 январь; Ашурув С. // Сурхон тонги. – Термиз, 2023, 23 август. № 34.

¹³ Муродов Ш. Тирик сўз тимсоллари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.

Mazkur dissertatsiyada yuqoridagi ishlardan farqli o'laroq mavzu ilk bor monografik yo'sinda o'rganilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligi va zamonaviy adabiy jarayon muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasi misolida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg'unligi masalasining poetik shakl, mazmun hamda obrazda namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasida poetik shakl va mazmunning mutanosibligi masalasini tizimli o'rganish, shoirlar ilmiy biografiyasini tiklash, she'rlarida ijodkor shaxs ruhiyati muammosini ko'rsatish hamda ruhiyatning shakl transformatsiyasida namoyon bo'lish masalasini ochib berish;

shoirlarning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, tabiat va ishqiy mavzudagi she'rlarida milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyati uyg'unligi masalasini ochib berish va ikki ijodkor she'rlari obrazlar tizimini tahlil qilish va asosiy xususiyatlarini ilmiy asoslash;

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasida tarixiy o'tmish va ajdodlar obrazining metaforik aks ettirilishi, ijodkorlar ruhiyati va peyzaj tasviridagi mutanosiblik xususiyatlarini aniqlash;

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasidagi detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati uyg'unligi va o'zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasi hamda ular lirikasining g'oyaviy yo'nalishi, shakliy-uslubiy xususiyati, kompozitsion rang-barangligi, xalqona ohanglarga alohida e'tibor berilganligini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida Ra'no Uzoqova asarlari jamlangan "Baxt qo'shig'i" to'plami hamda "Saylanma"si, Shafolat Rahmatulla Termiziyning "Ozod so'z" va "Ko'rinmay gulladim" kitoblari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasida poetik shakl va mazmunning mutanosibligi, ularning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, tabiat va ishqiy mavzudagi she'rlarida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg'unligi masalalasi talqini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda biografik, qiyosiy-tarixiy, germenevtik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziyning oilaviy muhitiga oid ma'lumotlar bilan biografiyasi tiklanib, ijodkorlar lirikasida tarixiy o'tmish va ajdodlar obrazining metaforik aks ettirilganligi, ijodkorlar ruhiyati va peyzaj tasviridagi mutanosiblik xususiyatlari aniqlangan;

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasidagi detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati uyg'unligi, o'zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasi va lirikasining g'oyaviy yo'nalishi, shakliy-uslubiy xususiyati, kompozitsion rang-barangligi, xalqona ohanglarga alohida e'tibor berilganligi ochib berilgan;

sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma'rifiy mavzularning XX asr o'zbek she'riyatida ham aks etishi, badiiy reallikka doir obrazlarning ikki ijodkor ruhiyati ifodasida muhim o'ringa egaligi asoslangan;

ikki ijodkor she'rlarida poetik shakl va mazmunning mutanosibligi aniqlanib, shoirlarning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, tabiat va ishqiy mavzudagi she'rlarida milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyati masalasi ochib berilib, ruhiyatning shakl transformatsiyasida janr, radif, qofiya va uslubda namoyon bo'lish holati aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki ijodkor lirikasining asosiy g'oyasi xalqona badiiy tafakkur, mumtoz poetika, o'zbek xalqi tarixidagi ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqligi, mazkur poetik hodisaning milliy zaminga egaligi ilmiy tadqiqot va o'quv jarayoni uchun xizmat qilishi dalillangan;

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasida poetik shakl va mazmunning mutanosibligi masalasi o'rganilgan va shoirlarning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, tabiat va ishqiy mavzudagi she'rlarida milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyati muammosi ochib berilgan;

shoirlar ijodining milliy tarix, ijtimoiy ideal va falsafiy tafakkurning milliy ruhiyat kontekstida talqin etilishi natijasida qadriyatlar va ajdodlar obrazining metaforik tasvirlariga oid ilmiy xulosalar yosh avlod ma'naviyati, ilmiy va badiiy tafakkuri takomili uchun amaliy ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

ijodkorlar ruhiyati va peyzaj tasviridagi mutanosiblik xususiyatlari she'riyatning sentimental holatining lirik janrlarda aks etishi va badiiy-estetik o'ziga xos jihatlari ilmiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy biografiyasiga, she'riyatiga oid tadqiqotlarda erishilgan nazariy qarashlarni yangilashi va to'ldirishi, milliy tarix, adabiy va ijtimoiy muhitning shaxs ruhiyati kontekstidagi talqini, shakl va obrazning o'rni hamda badiiy-estetik vazifasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati zamonaviy o'zbek she'riyatining nazariy asoslari hamda ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg'unligiga doir ilmiy

tadqiqotlar uchun material bera olishi, oliy o‘quv yurtlarining “Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishida “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qishda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg‘unligi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziyning oilaviy muhitiga oid ma’lumotlar bilan biografiyasi tiklanib, ijodkorlar lirikasida tarixiy o‘tmish va ajdodlar obrazining metaforik aks ettirilganligi, ijodkorlar ruhiyati va peyzaj tasviridagi mutanosiblik xususiyatlari aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2023- yil 28-noyabrdagi 01/4-2534-son ma’lumotnomasi). Natijada, sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma’rifiy mavzularning XX asr o‘zbek she’riyatida yoritilishi, badiiy reallikka doir obrazlarning ruhiyat ifodasidagi o‘rni muammosiga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy lirikasidagi detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati uyg‘unligi, o‘zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo‘shgan hissasi va lirikasining g‘oyaviy yo‘nalishi, shakliy-uslubiy xususiyati, kompozitsion rang-barangligi, xalqona ohanglarga alohida e’tibor berilganligi ochib berilganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2023-yil 28-noyabrdagi 01/4-2535-son ma’lumotnomasi). Natijada, Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy lirikasidagi obraz va ramzlar tizimini o‘rganishga, tasniflash va asosiy xususiyatlariga doir materiallar bilan boyishiga xizmat qilgan.

Sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma’rifiy mavzularning XX asr o‘zbek she’riyatida ham aks etishi, badiiy reallikka doir obrazlarning ikki ijodkor ruhiyati ifodasidagi muhim o‘ringa egaligi asoslanganligi hamda ikki ijodkor she’rlarida poetik shakl va mazmunning mutanosibligi aniqlanib, shoirlarning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, tabiat va ishqiy mavzudagi she’rlarida milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyati masalasi ochib berilib, ruhiyatning shakl transformatsiyasida janr, radif, qofiya va uslubda namoyon bo‘lish holati aniqlanganligi yuzasidan xulosalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universiteti 2023-yil 28-noyabrdagi 01/4-2534-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha mazmuni ijodkorlar hayoti va ijodiga doir ilmiy materiallar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 3 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ijodkor biografiyasi va ruhiyatining badiiy shaklda aks etishi**" deb nomlanib, 1.1 §da "**Ijodkor biografiyasi va nazmiy shaklning ruhiyat talqinidagi o'rni**" tadqiq qilingan. Badiiy asarning har tomonlama mukammal bo'lishi ijodkor ruhiyatiga, dunyoqarashiga, badiiy mahoratiga bog'liq. Dissertatsiya obyekti sifatida olingan Surxon vohasi farzandlari Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy ana shunday ijodkorlardan. Nazmiy shaklning bu ikki ijodkor ruhiyatidagi talqiniga o'tishdan avval Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy hayoti va ijodiga to'xtalish zarurati seziladi.

Ra'no Uzoqova 1916-yil 16-martda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanidagi Oqqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Shoira haqida matbuotda ilk munosabat bildirgan ijodkor Sharof Rashidovdir. U "Ra'no"¹⁴ maqolasida shoira 3 yoshida ota-onasidan yetim qolgani, Maryam Badriddinova qo'lida tarbiya topganini ta'kidlab o'tadi. Keyinchalik surxondaryolik madaniyat xodimi Toshtemir Turdiyev uning she'rlarini to'plab nashr qildi va unga Normurod Narzullayev so'zboshi yozdi. Jurnalist, ijodkor Abdulla Xolmirzaev Ra'no Uzoqovani shoira sifatida elga tanitdi. U Samarqandga bir necha marta boradi va uning qizi Rahima Uzoqovani izlab topadi. Ammo Rahima onasi vafot etganida uch yoshda bo'lib, onasini eslay olmaydi. Abdulla Xolmirzayev Ra'no Uzoqovani Samarqand shahridagi "Birodarlik qabristoni"da dafn etilganini aniqlaydi. Tatar oilasida unib-o'sib, internatda tarbiya topib, o'quv yurtida ta'lim olib, keyin tumanning turli madaniyat muassasalarida ishlagan Ra'noning familiyasini Gareyeva bo'lgan. U

¹⁴Рашидов Ш. Раъно // Ёрқин ҳаёт. - Тошкент: 1940, №5-6.

Jarqo'rg'on maktablarida o'qituvchilik qildi, san'at bilan shug'ullandi. Uning nutqi nihoyatda go'zal bo'lib, ko'p she'rlarni yoddan aytar edi. U 30-yillar boshida Jarqo'rg'on tuman gazetasi redaktori bo'lib ishlagan, asli samarqandlik (Toyloq) Sayfiddin Uzoqovga turmushga chiqadi. Sayfiddin Uzoqov 1943-yilning oxirlarida Samarqanddan frontga jo'natilgan. 1944-yili oilada qiz farzand, ya'ni Rahima tug'ilgan¹⁵. Shoir 1927-1931-yillarda Termiz ta'lim-tarbiya bilim yurtida tahsil oladi. 1938-yilda Buxoroga borib, "Buxoro haqiqati" gazetasida ishlaydi. 1940-1942-yillarda Samarqand viloyati gazetasida va radioeshittirish qo'mitasida faoliyat ko'rsatadi. U 1944-yilda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'ladi. Uning "Uchrashuv" nomli dramasi, "Issiq-sovuq", "Qiymat", "O'g'irlangan baxt", "Rashk", "Zafarning hukmi" nomli hikoyalari, "Malohat", "G'alaba", "Sarvqad", "Gulandom", "Makr va muhabbat" kabi dostonlari mavjud. Shoiraning hayotlik paytida "Mardona yuring" (1942) she'rlar to'plami chop etilgan bo'lsa, keyinchalik "She'rlar" (1948), "Subhidamda uchgan qaldirg'och" (1969), "Saylanma" (1993), "Baxt qo'shig'i" (2016) kabi kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Shoir ijodini xalqqa yetkazishda samarqandlik Mardonqul Muhammadqulov va denovlik Toshtemir Turdiyevlarning xizmati katta bo'ldi. Sharof Rashidov, Nasrullo Oxundiy, Dushan Fayziy, Normurod Narzullayev, Abdug'afur Rasulovlarning shoir ijodiga bag'ishlab yozgan maqolalari ham e'tiborga loyiqdir. Shoir yurak xurujidan 1947-yil 31-yoshida Samarqandda vafot etadi. Uning Rahima ismli yosh qizi xuddi onasi singari juda yosh yetim qoladi¹⁶.

Shafot Rahmatulla Termiziy Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida 1941-yil 10-mayda, cho'pon Rahmatilla bobo va Oyimxol momo xonadonida tavallud topgan. Ularning oilasi san'atga juda qiziqqan. Akalari el tanigan Boboqul baxshi va Chorshanbi baxshi bo'lishgan. Shoir 1959-yilda o'rta maktabni bitirib, 1961-1965-yilda Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kiradi. 1966-yilning kuzigacha Samarqand davlat opera va balet teatrida ishlab, o'sha kuzda armiya safiga xizmatga ketadi. Xizmatdan so'ng, Surxondaryo viloyat xalq ijodi uyida yo'riqchi bo'lib ishlay boshladi. 1999-yildan 2010-yilning mayigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat bo'limini boshqaradi. Turmush o'rtog'i o'qituvchi Xosiyat Rahmatullayeva bilan sakkiz farzandning ota-onasi, o'n bitta nabiraning bobo-momosi bo'ldi¹⁷. O'z ijodi haqida shoir shunday yozadi: "1968-yilda Mengziyo Safarov menga viloyat gazetasi sahifasida "Oq yo'l Shafot" deb 30 yoshning ostonasida oq yo'l tiladilar. Shu-shu hanuz qalamni qo'ldan qo'ymay kelayapman... 1976-yilda G'afur G'ulom nashriyotidan chiqqan "Yoshlik bayozi"da bir turkum she'rlarim bosildi... 1979-yilda "Sharq yulduzi" nashriyotida "Go'zallikning tug'ilishi" to'plami va "Ohu" dostonim to'liq holda nashr etildi. Nihoyat, 40 yoshning ustida birinchi kitob - 1981-yilda G'afur G'ulom nashriyotida

¹⁵ Холмирзаев А. Шоира юрган йўлларда //Сурхон тонги (Ленин байроғи). – Термиз, 1971, 16 октябрь; Shu muallif. "Янги аср" радиоканалининг "Мозий бугуннинг нигоҳида" муаллифлик эшиттириши.-Термиз, 2019 йил, 20 ноябрь.

¹⁶Турсунов С, Муртозаев Б. Сурхондарё тарих кўзгусида. –Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 384.

¹⁷ Шафоат Рахматулло Термизий. Дўмбира менинг илк устозим // Ёшлик. – Тошкент, 2011. № 11-12. – Б. 7; Shafot Rahmatulla Termiziyning qo'lyozma holdagi nashr etilmagan "Men va meni istaganlar" kitobida ham berilgan.

ilk to‘plamim “Janub shamoli” chiqdi. O‘sha yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi Sarvar Olimjonovich Azimov boshchiligida Zulfiya opa, Erkin Vohidov va boshqa ijodkorlar viloyatimizga kelishib bizlarni Yozuvchilar uyushmasi a‘zoligiga qabul qilishdi... 2003-yili “Ozod so‘z” saylanmam “Yangi asr avlodi” nashriyotida nashr qilindi. 2008-yilda birdan ikki mo‘jaz to‘plamim “Ko‘rinmay gulladim” va “Shoh va shoir”ni muharrir nashriyotidan chop qildirdim”¹⁸. Shoir 43 yil davomida Termiz davlat universitetida musiqa o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. 1998-yilda “Shuhrat” medali, 2003-yilda “El-yurt hurmati” ordeni davlat mukofotlari bilan mukofotlangan¹⁹. Shoir og‘ir xastalik bilan 2016-yil vafot etgan.

Ra‘no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodidagi nazmiy shaklning o‘zigina ularning keng dunyoqarashi, sof ruhiyatidan dalolat beradi. Shafoat Rahmatulla Termiziy she‘riyatida bugungi zamonaviy she‘riy janrlar ikkilik, to‘rtlik, beshlik, oltilik, sakkizlik kabi va mumtoz adabiyot namunalaridan ruboiy, g‘azal va tuyuq, muxammas, musaddas kabi janrlar uchraydi. Bir tuyuq quyidagi misralar bilan bitilgan:

*Yomonlarga til – tig‘ bo‘lsin, bolta – lab,
Tashla ular o‘q ildizin boltalab.
Yaxshilarga til uchida shakar tut,
Kimki haq, u lablaringdan bol talab*²⁰.

Ushbu tuyuq a-a-b-a shaklida qofiyalangan bo‘lib, boltalab so‘zi qofiyadosh va omonim bo‘lib kelmoqda. Birinchi misradagi bolta – lab so‘zi lablar achchiq til uchun bolta ma‘nosida, ikkinchi misradagi boltalab, yomon so‘zning o‘q ildizini boltalab tashla ma‘nosida, to‘rtinchi misradagi bol talab so‘zi esa haq gap egasi lablaringdan bol talab qiladi, ya‘ni shirin so‘z kutadi ma‘nosida kelmoqda. Bular hayot haqiqati, ijodkor bu haqiqatni tuyuqda mohirona poetik ifodalaydi. Shoirning avtobiografik xarakterdagi bu to‘rtligi ham shoir ruhiyatini ifodalashi jihatidan e‘tiboga molik.

*Kunim tersiz, kecham she‘rsiz o‘tmaydi,
Ko‘z oldimdan yozsam Termiz ketmaydi.
Tor xonada yashayapman tiqilib,
Keng yuragi Termizning jiz etmaydi*²¹.

Ushbu to‘rtlik a-a-b-a shaklida qofiyalangan bo‘lib, shoirning hayoti qanday o‘tayotganligidan xabar beruvchi bir parchadir. Kunduzi mehnatda, kechasi ijodda bo‘lgan ijodkor tor xonada tiqilib yashayotganligi va bunga hech kim parvo qilmasligidan noliydi. To‘rtlikning uchunchi misrasida ta‘kidlanganidek, shoirning tor xonada tiqilib yashashi faqat hayot tashvishi emas, balki dardlarga to‘la qalbning bu dunyoga sig‘mayotganligi tashvishi hamdir. Zero, haqiqiy shoir qalbi hech kimmikiga o‘xshamagan o‘zgacha dard bilan yashaydi. To‘rtinchi misradagi

¹⁸ Шафоат Раҳматулло Термизий. Дўмбира менинг илк устозим // Ёшлик. – Тошкент, 2011. № 11-12. – Б. 7; Shafoat Rahmatulla Termiziyning qo‘lyozma holdagi nashr etilmagan “Men va meni istaganlar” kitobida ham berilgan.

¹⁹ Shu joyda.

²⁰ Раҳматуллаев Ш. Озод сўз.– Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 312.

²¹ Shu kitob. – Б. 311.

Termizning keng yuragi jiz etmaydi jumlasida esa ma'no ko'chish bor. Aslida, shoir qalbidagi dardga Termiz emas unda yashayotgan odamlar beparvo.

Ra'no Uzoqova ijodida zamonaviy she'riy janrlardan to'rtlik, beshlik, sakkizlik va kam miqdorda o'nlik uchraydi. She'rlari orasida beshliklar salmoqli o'rinni egallaydi. "Mardona yuring", "Unutmam men ham", "Ona va qiz suhbat", "Merganim", "Quyosh" kabi she'rlarini beshlikning go'zal namunalari deyish mumkin. "Quyosh"²² beshligi to'rt banddan iborat bo'lib, birinchi bandida Quyosh nuridan ko'zlar to'ymasligi, yuzlarning olovdek yashnashi, u buyuk olamga jon bag'ishlashi, mehnatkash tomirlarga qon berishi aytilsa, ikkinchi bandda quyoshsiz el zim-ziyo bo'lishi, bog'da gul, vodiya giyoh bitmasligi, baxtimiz tun kabi siyoh bo'lishi, el boyqushlar makoniga aylanishi ta'kidlanadi. Uchinchi bandda bo'ronlarni, bulutlarni quvganida, insonlar quyosh nuriga yuz tutganini, tomchilar dillarning dog'in yuvganda, quyosh intiqlik bilan kutilgani go'zal o'xshatishlar bilan poetik ifodalangan. She'rning to'rtinchi bandi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Munavvar bir tongda shu'lalar sochding,

G'aflat uyqusini tark etdi gullar.

Nuring-la baxtimiz bulog'in ochding.

Nur sochding, baxt quchib, yayradi dillar,

Sen bilan biyrondir bog'langan tillar.

She'rning birinchi bandi a-a-a-b-b shaklida, ikkinchi bandi a-b-b-a-a shaklida, uchinchi va to'rtinchi bandlari a-b-a-b-b shaklida qofiyalangan. She'rda quyosh o'z ma'nosidan tashqari hurlik ma'nosini ham ifodalamoqda. Ikkinchi bandning birinchi misrasi "Quyoshsiz elimiz bo'lib zim-ziyo", oxirgi "Der edik: "Yorug' kun kelarmi ayo..." misralari fikrimizni isbotlaydi. Dissertatsiyada bu kabi she'rlar tahlili batafsil amalga oshirilgan.

1.2 § **"Ruhyatning shakl transformatsiyasida namoyon bo'lishi"** tadqiqiga bag'ishlangan. Transformatsiya voqea-hodisaning bir holatdan boshqa bir holatga qayta ishlangan shaklda o'tishini anglatadi. Tilshunoslikda transformatsiya deb tilga xos tub, markaziy qurilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkilamchi qurilma hosil qilish usuliga aytiladi²³. Bu metodni AQSh olimi Z.Xarris taklif etgan. Keyinchalik bu metod adabiyotga ham ko'chgan. Ustoz shoirlar uslubiga, ijodiga, she'rlaridagi ifodaga ergashish, ularga tazmin, taxmis bog'lash, umuman olganda adabiyot tarixidagi an'anaviy mavzularni zamonaviy adabiyotga bir oz o'z tafakkurida o'zgartirgan holda olib o'tish, ko'chirish bu transformatsiya hodisasidir. Transformatsiya tushunchasi dastavval amerikalik olimlar tomonidan o'tgan asrning 50-yillarida o'rganilgan bo'lib, ushbu tushunchaning keng iste'molga kirishiga Leonard Blumfirdning hissasi katta²⁴. Ammo bu hodisa sharqda ancha oldin paydo bo'lgan. Atoiyning Lutfiy g'azallari ta'sirida ko'plab g'azallar bitishi, xamsachilik an'analari taraqqiyoti fikrimizning isbotidir. Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodida ham bu hodisa yaqqol ko'zga tashlanadi. Shafolat Rahmatulla

²²Узоқова Р. Бахт қўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 19.

²³Маматқулов С. Ўзбек тилида предекатив синтагманинг трансформацияси. – Тошкент: Университет, 1998. – Б. 32.

²⁴Eshboyeva O. Transformatsiya lingvistik tushuncha sifatida. The journal of social sciences and researches, 2023. 4-yanvar. – B. 127.

Termiziy ham o‘tmishdosh salaflari izidan borib, ulug‘ Navoiy va Cho‘lpon g‘azaliga taxmis bog‘lashga jazm etgan va buni uddalay olgan. Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodida uchta taxmis mavjud. Ikkitasi ulug‘ Navoiyning mashhur g‘azallariga bog‘langan. Ma‘lumki, Alisher Navoiy ijodi barcha davr ijodkorlari uchun ibrat maydoni bo‘lib kelgan. Shu jumladan, Shafolat Rahmatulla Termiziyni ham ulug‘ shoirning mashhur g‘azallari o‘ziga jalb qilib, taxmis bog‘lashga ahd qiladi. Navoiy ijodi bilan chuqur tanishib, g‘azallaridagi she‘riy san‘atlar va badiiy ifodani o‘z ijodiga ko‘chiradi. “Qaro ko‘zum”²⁵ g‘azaliga bog‘langan “Navoiy g‘azaliga muxammas”²⁶ nomli taxmis ham diqqatga sazovordir:

*Bas, hijron azobikim gar odamsen ma‘n qilg‘il,
Malhami muruvvatdin darddin forig‘ tan qilg‘il.
Husning tojiga mehr guharin ham sha‘n qilg‘il,
Qaro ko‘zum kelu mardumlug‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi Vatan qilg‘il.*

Shoir tomonidan Navoiyning “Qilg‘il” radifli g‘azaliga taxmis bog‘langanda janriy tafovut seziladi, ya‘ni janr transformatsiyasi ro‘y beradi. She‘rda vazn, qofiyalanish saqlangan, ammo janr o‘zgarishga uchrab, muxammasga aylangan. Albatta, Navoiy uslubi ham transformatsiyaga uchraydi, muxammasda Shafolat Rahmatulla Termiziy uslubiga o‘tadi. Shoir mumtoz an‘analarni saqlagan holda o‘z navbatida Navoiy ijodidan ta‘sirlanib, o‘z rejalarini ham she‘rga olib kiradi. Masalan, oxirgi bandda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi: “*Bas Shafolat holingga endi xush chora tuzsang, Ibrati ustoz debon bir devon sara tuzsang. Na ajab ash‘or ila davlat, fuqaro tuzsang*”. Shafolat Rahmatulla Termiziyning yana bir taxmis bog‘lagan g‘azallaridan biri Cho‘lponning “Qalandar ishq”²⁷ g‘azalidir. Shoir taxmisi olti banddan iborat bo‘lib, Cho‘lpon ifodalagan tuyg‘ularga hamohang va uni to‘ldirishga xizmat qilgan. Shafolat Raxmatulla Termiziyning “sulton”, “chilton”, “o‘lpon” kabi so‘zlarni radif sifatida tanlashi “Cho‘lpon” radifini to‘ldirishga xizmat qilgan. Cho‘lpon she‘ridagi qalandarning ishq bu hurlikka bo‘lgan muhabbati bo‘lsa, Shafolat Rahmatulla Termiziy muxammasidagi ishq esa Cho‘lponning yurt ozodligi yo‘lidagi matonatiga bo‘lgan muhabbati. Masalan: beshlikning *Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku!*- misrasidagi jumalarda Cho‘lpon va ko‘plab ziyolilarning “otilishi”ga ishora bo‘lib, Shafolat shoir ularning halokatidan iztirob chekadi.

Ra‘no Uzoqovaning taqdiri shoira Zulfiyaxonim hayotiga o‘xshab ketadi. Ra‘no Uzoqova ham Zulfiyaxonim kabi turmush o‘rtog‘idan juda yosh ajraladi. Ikkisining ham she‘rlarining asosiy mazmuni yorini qo‘msash, vafo, sadoqat tashkil etadi. Zulfiyaxonimning “Ko‘rganmiding ko‘zlaringda yosh”²⁸ she‘ridagi so‘nmas sadoqati, o‘z yoriga bo‘lgan kuchli sog‘inchi har bir qalbni o‘rtaydi. Bu juftlik o‘rtasidagi mehr-muhabbat butun olamga tatiydi.

Sog‘inganda izlab bir nishon,

²⁵ Alisher Navoiy. Qaro ko‘zum. (Nashrga tayyorlovchi: Maryam Rahmatullayeva). – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1988. – B. 219.

²⁶ Раҳматуллаев Ш. Озод сўз.– Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 30.

²⁷ Cho‘lpon. Ko‘klam ruhi. She‘rlar. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 16.

²⁸ Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 68

*Qabring tomon olar edim yo 'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul...*

Bu mehr, sevgi, sog'ingan yoriga atalgan gul Ra'no Uzoqovaning "Guldasta"²⁹ she'rida ham uchraydi:

*Nega men sabr etmay? Mana ko'nglimda,
Unga deb to'plangan nafis guldasta.
Asrlar kezsamda hijron yo'lida.
So'lmas bu chechaklar, yashnar nafasda.*

Har ikki shoir she'rda ham yorini sog'inish, uni xayolan erkalash hissi badiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Ammo Zulfiyaning "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh" she'ri Ra'no Uzoqovaning "Guldasta" she'rida makon jihatidan farqlanadi. Zulfiya she'rida bu hijron iztiroblari qabr tepasida, yig'lab turgan paytda sodir bo'layotgan bo'lsa, Ra'no Uzoqovaning she'rida bog'da guldasta tayyorlash jarayonida ro'y bermoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Badiiy mazmun – ijodkor ruhiyati ifodasining estetik omili**" deb nomlangan bo'lib, 2.1 §da "*Shoir ruhiyati va peyzaj tasviridagi mutanosiblik*" masalasi tadqiq qilingan. Badiiy asar mukammalligini ta'minlash, qahramon ruhiyatini ochish va asar syujetini rivojlantirishda peyzaj tasviri muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat manzarasi orqali ijodkor o'zining Vataniga, tabiatiga bo'lgan munosabatini badiiy bo'yoqlarda ifodalaydi. "Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Peyzaj – har qanday ochiq makonning tasviridir. Ko'pincha bu tabiatning aksi sifatida ko'zga tashlanadi. Ijodkorlar uchun tabiat ijod obyekti hisoblanadi. Chunki u cheksiz kuch, faollik va hayotiylikka ega³⁰. Shoir Ra'no Uzoqova ham she'rlarida tabiat tasvirlarini jonli, tabiiy, tiniq va ma'nodor tasvirlaydi. U yurak-yurakdan tuygan, anglagan, ong-shuuri elagidan o'tkazgan xolis xossalarning realligiga sidqidildan ishonadi, bizni ham ishontiradi. Uning "Sevaman jondan"³¹ nomli she'ri inson nigohi – ko'ngil ko'zining munchalar beaded hadlarni qamrab olishi imkoniyatlarini his ettiradi. Tabiat ranglari, turfa tovushlar shaklidagi ohanglari kechinmalar tariqasida ong-shuurimizga oqib kiradi. She'rda fasllarning fayzli va maroqlisi bo'lgan bahor, uning boshlanishi quyidagicha poetik talqin etilgan:

*Yer bag'rini qoplagan oq qor,
Eriganda...,
Suvlar toshganda;
Tog'dan tushgan kumush irmoqlar,
Qahqahasi haddan oshganda,
Daraxtlarning siydam shohlari,
Huv... Yalang'osh gul butoqlari -,
Kurtak ochib, chechak otarkan,*

²⁹ Узоқова Р. Бахт кўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 95.

³⁰ Галанов Б.Е. Живопись словом: Портрет. Пейзаж. Вещь. М.: Сов. писатель, 1974. 344 с.

³¹ Узоқова Р. Бахт кўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 35.

*So'ng lolalar nozli boqarkan,
Uni yellar o'pib, quchganda.
Tebranishin sevaman jondan.*

She'rdagi qishning tugashi, bahorning boshlanishi, yer bag'ridagi qorning erishi va toshqin suvlarning sharsharasi, tog'dan oqqan suvlarning kumush irmoqqa o'xshatilishi o'quvchini o'ziga maftun etadi. Irmoqlardagi kumush suvlar qah-qah urib, "haddan oshib", shovqin-suron bilan oqishidagi tashbehlar kishini o'ziga rom etadi. Misralar talqiniga e'tibor qaratsak, inson va daraxt o'rtasida o'xshashlik jihatlariga guvoh bo'lamiz. U kurtaklaydi, yangilanadi, meva tugadi, keksayadi. Bu xislatlar odamlarga ham xosdir. Shoira bu voqelikni ushbu she'r misolida mahorat bilan gavdalantiradi.

Peyzaj tasvirining yorqin namunalari Shafolat Rahmatulla Termiziyning ko'plab she'rlarida ifodalanadi. Shoir ijodida ona-tabiat bilan bog'liq she'rlar alohida bir tizimni tashkil etadi. Avvalo, shoir ona-tabiat qo'ynida yashadi. Undan ilhom oladi. Shoir surxon kengliklarini, sahro-yu cho'llarini, bog'-u rog'larini qo'shiqqa soldi. Mana, surxonga bahor keldi. O'lis soylar tubidan yangrayotgan nayning nolasida, zarang kuvidan ayron suzayotgan juvonlarning nigohlarida bahor nafasini sezasiz.

*Qiz ko'zgusi bo'пти buloq suvidan
Nay chaqirar o'lis soylar tubidan,
Ayron tutar yanga zarang kuvidan,
Meni yuqlab yana bahor keldimi?*

Shoirning "Navro'znoma", "Bobotog'da bir ohu ko'rdim", "Surxon chechaklari", "Bobotog' bahori" she'rlarida ham inson va tabiat orasidan uyg'unlik izlayotgan lirik qahramon kechinmalari ifoda etiladi³².

Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasida tabiat manzarasi orqali o'zining Vatanga, ona tabiatga bo'lgan munosabatini betakror badiiyat va teran fikrlar bilan ifodalaydi. Bu tabiat tasviri she'rlar syujetining g'oyaviy-estetik quvvatini oshirgan. Ikki ijodkor ham peyzajning an'anaviy vazifalaridan foydalanib, badiiy tasvirlar va belgilarni, qahramonning ichki holatini ochishga xizmat qilgan.

Ikkinchi bobning 2.2§ "**Milliy ruh va ijodkor shaxs ruhiyati uyg'unligi**" tadqiqiga bag'ishlangan. Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy she'riyatida ijodkor shaxs va milliy ruh uyg'unligi masalasi millatning axloqi, irodasi va e'tiqodiga tayangan holda tasvir etilgan. Milliy ruh badiiy asarlarda ma'lum tamoyillar asosida namoyon bo'lishi xususida professor Nurboy Jabborov quyidagicha yozadi: "...ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) millat ruhini mujassam etgan o'ziga xos urf-udumlar, an'analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; 2) millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e'tiqodning poetik suvratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e'tiqodini tajassum etadi va bu

³² Йўлдошев Н. Шафоят Термизий: Имом Термизийга муножот. Буюк муҳаддис Абу Исо Термизий ва Термизийларнинг бой илмий-маънавий меросини ўрганиш. Халқаро илмий анжуман мақолалар тўплами. – Б. 133.

uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi”³³. Mazkur tamoyillarni Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziylar she’riyatida milliy ruhning poetik ifodalanishi masalasiga ham tatbiq etish mumkin. Ammo ularning farqlari ham bor, har bir muallif o‘z asarlarida milliy ruhga turlicha yondashib talqin etadi. Jumladan, Shafoat Rahmatulla Termiziy “Bulbul qay gulga oshiq” she’rining umumiy mohiyatida milliy ruh va shoir ruhiyatining uyg‘unligini ko‘rish mumkin:

*Bahor-qiz ko‘ylagining etagi so‘kildimi,
Undan yashil gilamga marjoni to‘kildimi?
Harir ko‘ylak kiyishib, sayilga chiqqan ming qiz,
G‘uncha lablarin ochib yo barobar kuldimi?...³⁴*

Bahor – barcha tirik jonzotlar va o‘simlik dunyosi uyg‘onadigan fasl. Bu misralarda o‘zbek millatiga xos bo‘lgan urf-odatlar, qizlarning zavq-shavq bilan saylga chiqishi badiiy bo‘yoqlarda mahorat bilan tasvirlanadi. Shoir tabiat tasvirini yaratib, nafaqat lirik qahramonning ruhiy holatini aks ettirishga, balki tuyg‘ular pardasi ortida ritorik so‘roqlar orqali ko‘rinmaydigan voqelik elementlarini qo‘shishga harakat qiladi. Vatan haqida yozmagan ijodkorlarni topish mahol. Ra’no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy asarlarida Vatan obrazi zamirida teran mohiyatni joylay bilishi, milliy ruhni mujassam etish salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Shafoat Rahmatulla Termiziyning “O‘zbekiston”, “O‘zbekiston o‘zing yagona”, “Vatan haqida monolog”, “Vatan hur, asr yangi” mavzudagi she’rlarida kindik qoni to‘kilgan vatanga muhabbat, har bir go‘shasining o‘ziga xosliklarini ta’rif-u tavsif etadi.

Ra’no Uzoqova she’riyati ruhiy kechmish va kechinmalarga boyligi, tuyg‘ularning musaffoligi, hissiyotlari quyugligi bilan boshqa o‘zbek shoirlar nazmidan ajralib turadi. Shoira lirikasida tuyg‘ularning ayovsiz taloto‘pini, haqiqat va erk, poklik va muhabbat izlagan majnunsifat yurakning otashin isyoni, cheksiz talpinishi, jonsarakligi ko‘zga tashlanadi. Ra’no Uzoqova ayol qalbi xaritasini o‘ta nafosat va jo‘shqin pafos bilan chiza olgan san’atkor shoiradir. Bu she’riyat bizni ko‘rmagan narsamizni ko‘rish, aytilmagan gapni eshitish, hali bizga noma’lum bo‘lgan narsalar mohiyatini bilishga o‘rgatadi. Ra’no Uzoqova milliy ruh tasviri orqali inson ruhiyatining hazin holatini bola obrazi orqali quyidagi misralarda poetik ifodalaydi:

*...Mehribon yuz bilan: kel, olay! – dedi,
Bag‘riga bosdi-yu, ketdi bir zumda.
Internat eshigi ochilib shunda,
Oldilar soqchining qo‘lidan qizni.
Kiygizib Anorga ozoda libos,
Sevdilar erkalab qop-qora ko‘zni³⁵.*

Ra’no Uzoqovaning internatda ulg‘ayganini e’tiborga olsak, bu she’r shoira biografiyadek tasavvur uyg‘otadi, kishida. She’rda o‘zbek millatiga

³³ Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси. // Филология масалалари. – Тошкент: 2020, № 2. – Б. 35.

³⁴ Раҳматуллаев Ш. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 38.

³⁵ Узоқова Р. Бахт қўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 27.

xos bo‘lgan insonparvarlik, ona xalqining muhabbati teran fikrlar bilan poetik talqin etilganini ta’kidlash mumkin.

Xullas, Ra’no Uzaqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy she’riyatida xalq, millat yetakchi o‘rinni egallaydi. Ikki ijodkor qaysi mavzuda yozmasin, she’rlarida ona xalqiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi, urf-udumlar, an’analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini bor ko‘lami bilan aks etadi va milliy ruhni betakror poetik ifodalashga xizmat qiladi.

“Ijodkor shaxs ruhiyatining poetik obrazda ifodalanishi” nomli uchinchi bobning 3.1 §da **“Detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati talqini”** masalasi tadqiq etilgan. Voqeylikni jonli va ishonarli ifodalashda, hayotiy parchachalarni tipiklashtirish, asar xarakterini ochib berish, asarning emotsional ta’sir kuchini oshirishda detal va voqea-hodisalar obrazi muhim o‘rin tutadi. Detal va voqea-hodisalar obrazida ijodkor ruhiyati talqini ma’no va mazmunda aks etadi. Ma’no-mazmunning qanday va qay ko‘rinishda ifodalanishi badiiy asar strukturasi hosil qiladi. Detal obrazlar xususida adabiyotshunos B.Sarimsoqov ta’kidlaganidek, narsa-buyumlar, portretlar, peyzaj kabi tasvirlar detal obrazlarni tashkil etadi. Muallif ayni shu detal obrazlar vositasida o‘z his-tuyg‘ularini, maqsad va fikrlarini ochib beradi. Ba’zan detal obrazlar ramziy ma’no-mazmunga ham ega bo‘ladi³⁶. Detal obrazlar haqida adabiyotshunos Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” asarida quyidagicha fikr-mulohazalar bildiradi: “Detal obrazlar (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj) o‘zlarining statik holatdaligi bilan farqlanadi. Detal obrazlarda badiiy reallikning ikkinchi qatlami – ichki yoki tashqi harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazi o‘sib chiqadi”³⁷. Bunday qarashni Ra’no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasidagi detal va voqea-hodisalar obrazida ham ko‘rishimiz mumkin. Ikki ijodkor she’riyatida milliylik xalqona voqea-hodisa, detal va predmetlar vositasida poetik ifodalanadi. Jumladan, Shafolat Rahmatulla Termiziyning “Birinchi tushdagi dialoglar” turkum she’rida Bobotog‘ detal obrazining yorqin namunasini ko‘ramiz:

*Oppoq bulutlarni belanchak qilsam,
Hilol ipagidan halinchak qilsam.
Bobotog‘ kelbatli kuyov bo‘lsamu,
Bahorni o‘zimga kelinchak qilsam*³⁸.

She’rdagi ohang va Bobotog‘ obrazi o‘zining originalligi, o‘ziga xosligi bilan o‘quvchi diqqatini tortadi va shoirning badiiy mahorati ham shunda bilinadi. Bobotog‘ning viqori lirik qahramonni o‘ziga maftun etadi. Shoirning ko‘plab she’rlarida Bobotog‘ hayotdan zavq olishni istagan lirik qahramon uchun o‘ziga xos bir surur va mardlarni sinovchi maydon sifatida keladi.

*Buloqlardan qonib to‘yib kelayin,
Qoyalarga noming o‘yib kelayin.
Bobotog‘dan poyga qo‘yib kelayin,
Oq yo‘l tila, tog‘ sayriga, dilbarim.*

³⁶Худоёрова Г. Абдулла Орипов шеърлятида лирик кечинма ва поэтик тасвир уйғунлиги (хориж сафарларидаги асарлари мисолида).Филол.фан.б.фалс.док.дисс. – Тошкент: 2022. – Б. 83.

³⁷Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 72.

³⁸Рахматуллаев Ш. Термизий. Озод сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2003. – Б. 194.

Shoir “Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim” she‘rida ham shu obraz va shu ruhni davom ettirib, *Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim, Tovus xirom, oy yuz, o‘t nigoh. Oshiq bo‘lib ergashib yurdim, Bir qiz bo‘lib imladi u goh*, tarzida Bobotog‘ obrazini mazkur she‘rda ham u oshiqni ma‘shuqaga yetkazuvchi bir maskan sifatida badiiy lavhalarda tasvirlaydi. O‘zbekona predmetlar vositasida obrazlarda milliy ruhning aks etishini Shafolat Raxmatulla Termiziyning 5 baytdan iborat “Do‘pping” radifli g‘azalida ham ko‘ramiz:

*Qirq kokiling jilg‘alangan bir tog‘istondir do‘pping
Tundek soching uzra gohi oydin ocmondir do‘pping*³⁹.

She‘r mazmunidan bilinadiki, g‘azal oshiqning yoriga ta‘rif-u tafsifi bilan boshlanadi. Shoir o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yadi. Yor suratining jozib tasviri uchun so‘z qidiradi. Shoirning o‘z yurti bilan bog‘liq urf-odat va an‘analarni, o‘z mentalitetiga xos tushunchalarni soch, kokil, do‘ppi detallari asosida she‘rga mohirona singdirib yuborishi buning dalilidir.

Ra‘no Uzoqovaning ikkinchi jahon urushi yillari yozilgan “Tankchi” she‘rida urush yillarida mardonavor jang qilayotgan millat o‘g‘lonlari tilga olinib, Tank detali va voqea-hodisalar obrazi sifatida urush obrazi mahorat bilan poetik ifodalanadi:

*Tog‘lar oshib, yo‘llar bosib po‘lat ot keldi,
Arslon kabi na‘ra tortib buyuk zot keldi.
Hamlasidan yaproq kabi titraydi tog‘lar,
Tankni haydab mardi maydon sher avlod keldi*⁴⁰.

Shoiraning voqea-hodisalar obrazi sifatida tasvirlangan urush (kurash) obrazi xalqona ohangda poetik ifodalangan “Kurash allasi” to‘rtligida ham bir mo‘tabar onaning dilbandiga aytgan allasi mahorat bilan tilga olinadi:

*Sen tug‘ilding kurash kunlari,
Yuksalganda faryod unlari.
Qonga to‘la xanjar qinlar
O‘qlar uchsa cho‘chima, alla*⁴¹.

Ra‘no Uzoqova she‘riyatidagi tank, alla detallari va urush (kurash) kabi mental obrazlar poetik ifodasi dissertatsiyada keng tahlilga tortilgan. Ijodkor badiiy maqsadini yuzaga chiqarish, davr ruhini ifodalashdagi roli ko‘rsatilgan. Detal va voqea-hodisalar obrazida o‘zbek xalq mentalitetiga xos elementlar poetik ifodalanib, ijodkorlarning badiiy maqsadini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bobning 3.2 § **“Badiiy obrazning ruhiyat ifodasidagi o‘rni”** tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda Ra‘no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy she‘riyati misolida badiiy obrazlarning faqat ikki turi tahlilga tortilgan. Ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Tarixiy-adabiy qahramonlar obrazining poetik ifodalanishi
2. Zamondoshlar obrazining badiiy talqini.

³⁹Shu kitob. – B. 98.

⁴⁰Узоқова Р. Бахт қўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 408.

⁴¹ Shu kitob. – B. 413.

Tarixiy-adabiy qahramonlar obrazining poetik ifodalanishi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma'naviyati, uning taraqqiyot bosqichlari, o'tmish va kelajak bilan bog'liq jihatlarini o'rganish, yosh avlodga ajdodlarimiz asarlarida ilgari surilgan g'oya va mavzularning mazmun-mohiyatini anglatish, mutaffakir bobolar merosiga vorislik, izdoshlik, ularni Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch ruhida komil insonlar qilib tarbiyalash ehtiyoji ham tarixiy obrazlar tabiati va uning ijodkorlar asarlaridagi betakror talqini muammosini o'rganishning nechog'lik dolzarb ekanligini ko'rsatadi⁴². Jumladan, Shafolat Rahmatulla Termiziy tarixda yashab ijod etgan, buyuk shaxslar va hukmdorlarga bag'ishlab ko'plab she'riy asarlar yaratgan. Shoir ularni asarlarida adabiy qahramonga aylantirgan. Uning "Beruniyga"⁴³ deb nomlangan she'ri bu jihatdan xarakterlidir. Buyuk shaxsning ilm-fanga qo'shgan ulkan hissasi quyidagicha poetik ifodalanadi:

*Falakning charxiga ketdi o'ralib,
Xudo qadar shohlar va qancha zamon.
Senchi, shu o'rinda chiqolding g'olib,
Shu g'altak ustida kelasan omon.*

Shoir bu ifoda tarzi bilan Beruniy yurgan yo'lining mashaqqati xususida so'z yuritadi. Falak charxida qancha vaqt o'tganligi, bu vaqtda qanchadan-qancha insonlar, shohlar o'tganligi, lekin Beruniyning nomi abadiy qolganligi haqida to'xtalib o'tadi. Adabiy qahramon, ayniqsa, u buyuk badiiy asar tarkibida bo'lsa, o'zi mansub xalq va keng ma'noda inson ruhiyatining muayyan qirrasini namoyon etadi. Shoir bu she'ri orqali Beruniyning ilm-ma'rifat olamini ta'rifu tavsif etib, sharaf hissini tuyadi va buni boshqalarga ham ilinadi.

Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodida tarixiy shaxslar obrazi betakror badiiyat bilan teran ifodalanganini ko'rish mumkin. Shoirning Amir Temur obrazi gavdalantirilgan "Temur va Hofiz"⁴⁴ asarida bu obraz poetik jihatdan o'ziga xos badiiy talqin etilgan. Go'zal o'xshatishlar, talmeh, istiora orqali she'rning ta'siri yanada ortgan: ...*Dunyolarni tiz cho'ktirgan Turon bo'lding, Taqdiringda Olloh bitgan shon bor, Temur.* Shoirano Rano Uzoqova ijodida aynan tarixiy-adabiy qahramonlarga atab yozilgan she'rlar bo'lmasada, ammo she'rlarida ularga murojaat qilgan, tarixiy-adabiy qahramonlarning ijobiy jihatlarini lirik qahramonga ko'chirgan holatlar uchraydi. Uning andijonlik jangchi Zubar Yusupovga atab yozilgan "Merganim"⁴⁵ she'rida, ikkinchi jahon urushida o'zining botirligi, merganligi bilan fashistlarni yakson qilgan Zubarga nisbatan "Alpomishning naslidan" uning otiga nisbatan esa "Boychibordan ildam" deya ta'lmech san'atidan mohirona foydalanib, o'xshatishlar bilan poetik ifodalaydi:

*Zubar Yusuf o'g'li, derlar otingni,
Alpomishning naslidan der zotingni.
Boychibordan ildam chopib otingni,
Yovni yanchib, zafar sari yura ber.*

⁴² Эшонкулова С.И. Нодира шеърлятида тарихий образлар талқини. – фил.фан номз...дисс.автореф. – Тошкент: 2011. – Б. 3.

⁴³ Раҳматуллаев Ш. Озод сўз. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 98.

⁴⁴ Shu kitob. – Б. 79.

⁴⁵ Узоқова Р. Бахт кўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 89.

Shum fashistni bitta qo‘ymay qira ber.

Shoira “Qahramon”⁴⁶ she’rida urushda qahramonlik ko‘rsatgan mard o‘g‘lonlarni Rustamga o‘xshatadi. She’rda yengilmas Rustamning kuchi bahodir o‘g‘longa ko‘chirilmoqda. Rustamsifat yigitlar jang maydoniga kirib kelganda, gitlerchilarning vahimaga tushib qolishi turli o‘xshatishlar bilan poetik talqin qilinadi. Shoira she’rlarida botir bilakli, ishda tolmas yigitlarni nafaqat Alpomishga, Rustamga, balki ulkan tog‘ni mum kesgandek kesib, suv chiqargan Farhodga ham o‘xshatadi.

Zamondoshlar obrazining badiiy talqini. Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi serqirra bo‘lib, o‘z zamonasining ilg‘or kishilariga atab ham ko‘plab she’rlar bitganini ta’kidlash mumkin. Bu bilan bir tomondan ularning ijodini, qahramonligini e’tirof etsa, ikkinchi tomondan bunday she’rlari orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodga shijoat, g‘ayrat bag‘ishlaydi. Shoirning “Maktub”⁴⁷ she’ri mufti Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlariga bag‘ishlangan. She’rda muftining diniy va dunyoviy ilmlar rivojiga qo‘shgan hissasi, e’tiqodi, pokdomon inson ekanligini mahorat bilan poetik talqin etadi. Zamondosh obrazlar haqida so‘z ketganda shoirning “Shoir Saydaliyev cho‘kkan kun yozilgan yo‘qlov”⁴⁸ muxammasiga to‘xtalmasdan iloj yo‘q. Shoir o‘z davrida yashab o‘tgan ziyoli qatlam vakillari hayoti va ijodiga befarq bo‘lmagan. Hamisha ularning ijodiga, mashaqqatli mehnatiga o‘z bahosini berib boradi. Shafolat Rahmatulla Termiziy ta’biri bilan aytganda: “Kechagina Qofqaz borib, qalamini charxlab kelgan”, Shafolat Rahmatulla Termiziyga “Hayyom nabirasi” deb murojaat qiladigan shijoatli bir shoir edi”. Muxammas Tesha shoirning chokib, bu dunyodan ketganligi sababli yo‘qlov tarzida bitilgan. She’r bilan tanishgan kitobxon Shafolat shoirning Tesha shoirga ixlosi, hurmati nihoyatda baland ekanligini payqaydi:

*...Kechagina Qofqaz borib charxlab kelib qalamingni,
Bugun nechun ravo etding bizga buncha alamingni?*

O‘z zamondoshlari obrazi Ra’no Uzoqova ijodida ham o‘ziga xos tarzda uchraydi. Ma’lumki, ikkinchi jahon urushida shoira sevikli yori jang qilish uchun ketib, shoira bilan qayta ko‘rish olmaydi. Bu dard, iztirob shoira hamisha qiynaydi. Shu jihatdan, urushda qatnashgan jasur yigitlar obrazi shoira ijodida yetakchilik qiladi. Uning “Tankchi”⁴⁹ she’ri ham mardonavor yigitlar uchun atalgan. She’rdagi tashbehlar ham o‘ziga xos. Tog‘ aro yurgan alp o‘g‘lonlar haqidagi she’r. Ularning qudrati ham o‘ziga xos tasvirga ega. Shoira Ukrain qiziga bag‘ishlab yozilgan “Muborak”⁵⁰ she’rida ham zamondoshlar obrazi poetik talqin etilgan. She’r urush tugagach Ukrain qizini muborakbod etish bilan boshlanadi:

*Yana ko‘zlaringda muborak o‘ti,
Yana yuzlaringda sevinchdan darak.
Yana lablaringda ko‘rindi kulgu,
Do‘stim, urush bitdi, hurlik muborak.*

⁴⁶ Shu kitob. – B. 91.

⁴⁷ Раҳматуллаев Ш. Озод сўз. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2003. – Б. 53.

⁴⁸ Shu kitob. – B. 89.

⁴⁹ Узоқова Р. Бахт қўшиғи. (Нашрга тайёрловчи Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – Б. 42.

⁵⁰ Shu kitob. – B. 411.

Ukrain qizi bag‘riga bosgan azamat, bir vaqtlar uning ishq bo‘lganligi, uning qora ko‘zlari-yu, tik qomati, xayoli va fikr yo‘ldoshi bo‘lganligi quyidagi bandda mahorat bilan ifodalanadi:

Sen bag‘ringga bosgan o‘sha azamat

Mening ishqim tongi, baxtim quyoshi.

O‘sha qaro ko‘zlar...O‘sha tik qomat

Mening xayolim va fikrim yo‘ldoshi. Shoiraning “Dugonamga”, “Kapitan” sarlavhali ko‘plab she‘rlari ham zamondoshlariga bag‘ishlangan.

Umuman olganda, Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodida ko‘proq tarixiy shaxslarga murojaat kuchli bo‘lsa-da, Ra‘no Uzoqova ijodida esa o‘z davridagi kishilarning qahramonliklarini obrazli tasvirlash ustuvorlik qiladi. Badiiy obrazlarning ruhiyat ifodasidagi o‘rnini har ikki shoir ijodida yorqin ifodalanganini ko‘ramiz. Ra‘no Uzoqova ijodidagi tankchi yigit qismati, urushga ketib, uyiga qaytib kelmagan erkaklar obrazi, sadoqat timsoli bo‘lgan ayyollar obrazi qismati bunga yaqqol dalildir.

XULOSA

Ra‘no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy she‘riyatida ijodkor shaxs va badiiy talqin uyg‘unligi tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ra‘no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy Surxon vohasida tavallud topdi. Bu ikki ijodkor biografiyasini tiklashda avlodlari ma‘lumotlari, zamondoshlari maqolalari va o‘z asarlaridagi ishonchli ma‘lumotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Natijada, ular hayot yo‘li, oilaviy muhitiga oid mavjud ma‘lumotlarga oydinlik kiritildi. Ra‘no Uzoqova lirikasida zamonaviy she‘riy janrlardan to‘rtlik, beshlik, sakkizlik va kam miqdorda o‘nlik uchraydi. Mumtoz adabiyotda asosan 7 baytli g‘azallar ko‘proqni tashkil qilsa-da, shoira ijodida 5-6 baytli g‘azallar ham mavjud. She‘rlari orasida beshliklar salmoq jihatdan ko‘p. Jumladan, “Mardona yuring”, “Unutmam men ham”, “Ona va qiz suhbat”, “Merganim”, “Quyosh” kabi she‘rlarini beshlikning go‘zal namunalari deyish mumkin. Bu she‘rlarda an‘anaviy ishq-muhabbat va ijtimoiy mavzular yetakchilik qiladi.

2. Shafoat Rahmatulla Termiziy she‘riyatida nazmiy shaklning o‘ziyoq uning keng dunyoqarashi, sof ruhiyatidan dalolat beradi. Ijodkor she‘riyatida bugungi zamonaviy she‘riy janrlar ikkilik, to‘rtlik, beshlik, oltilik, sakkizlik kabi va mumtoz she‘riy janrlar g‘azal, tuyuq, ruboiy, muxammas, musaddas, musamman kabilar uchraydi. Shoir ijodida tarixiy shaxslarga va oila-a‘zolariga bag‘ishlab (bag‘ishlov) yozilgan she‘rlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularda hayot haqiqatlari yengil, xalqona usulda ifodalanganligini ta‘kidlash kerak.

3. Ra‘no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy milliy she‘riyatimiz tilini ancha boyitib, xalq tiliga yaqinlashtirdi. Xalqchil she‘riy namunalar yaratdi. Jumladan, Shafoat Rahmatulla Termiziyning “O‘zbekim, onajonim” qasidasida o‘zbek xalqining nechog‘li mehmondo‘stligi, kelin qizlarning pazandaligi, momolarimiz-u bobolarimizning qaynoq tafti, oqibatligi, soddaligi, eng muhimi, Surxonga xos qadriyatlar she‘rga ko‘chib o‘tdi. Shoirlar poetik tilning tasviriy

vositalaridan mahorat bilan foydalanib, poetik obrazlarning badiiyligini ta'minlaydigan tasviriy vositalar (tazod, mubolag'a, talmeh, o'xshatish, sifatlash) qo'llab original obrazlar yaratdi.

4. Ra'no Uzoqova lirikasida ham ruhiyat masalasi o'ziga xos tarzda ochib berildi. Shoiraning "Gullar", "Yig'lama qiz", "Ostonangga qo'ydim qadam" kabi ko'plab she'rlarida shoira ruhiyatining misralarga uyg'unlashib ketganini ko'rish mumkin. Jumladan, "Ostonangga qo'ydim qadam" nomli she'rida shoiraning baxt va baxtsizlik, shodlik va uqubat, qalb kechinmalarining hayot va o'lim haqidagi qarashlari poetik ifodalanadi.

5. Ruhiyatning shakl transformatsiyalashuvini ijodkorlarning turli she'rlari tahlili asosida ko'rsatib berildi. Ra'no Uzoqovaning Navoiy, Bobur, Zulfiya lirikasidagi poetik hodisalarni ozlashtirib, o'ziga xos she'riy shakllar yaratishi, Shafolat Rahmatulla Termiziy Navoiy, Yassaviy va Cho'lpondan ijodiy ta'sirlanishi natijasida g'azallariga taxmislar bog'lab, misralar, radiflar va poetik obrazlar transformatsiyalashuvini yuzaga keltirganini ta'kidlash mumkin.

6. Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy lirikasida tabiat manzarasi orqali o'zining Vatanga, ona tabiatga bo'lgan munosabatini betakror badiiyat va teranfikrlar bilan ifodalaydi. Shoirlar inson ruhiy dunyosini tabiat holati bilan qiyoslaydi. Bu esa lirik qahramonning g'oyaviy-estetik quvvatini oshirgan. Ijodkorlar peyzajning an'anaviy vazifalaridan foydalanib, badiiy tasvirlar va belgilar orqali qahramonning ichki holatini ochib beradi. Ijodkorlar peyzaj orqali inja lirik kechinmalarini ham, katta falsafiy umumlashmalarni ham birday mahorat bilan poetik ifodalay bildi.

7. Vatan haqida yozmagan ijodkorlarni topish mahol. Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy asarlarida Vatan obrazi zamirida teran mohiyatni joylay bilishi, milliy ruhni mujassam etish salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Shafolat Rahmatulla Termiziyning "O'zbekiston", "O'zbekiston o'zing yagona", "Vatan haqida monolog", "Vatan hur, asr yangi" mavzudagi she'rlarida kindik qoni to'kilgan vataniga muhabbat, har bir go'shasining o'ziga xosliklarini ta'rifu tavsif etadi. Vatanga vafodorlik, sadoqat, mehr-muhabbat Ra'no Uzoqovaning ko'plab she'rlarida ham turli obrazlarda poetik ifodalanadi.

8. Voqelikni jonli va ishonarli ifodalashda, hayotiy parchalarni tipiklashtirish, asar xarakterini ochib berish, asarning emotsional ta'sir kuchini oshirishda detal va voqea-hodisalar obrazi muhim o'rin tutadi. Ijodkor shaxs ruhiyatining poetik obrazda ifodalanishi Ra'no Uzoqova va Shafolat Rahmatulla Termiziy she'riy asarlari misolida ko'rsatib berildi. Jumladan, "Do'pping", "Piyola", "Tankchi", "Kurash allasi", "Surxon chechaklari", "Qaqnus" "Birinchi tushdagi dialoglar" kabi she'rlardagi obrazlarda mualliflar qalb holatini, ko'ngil armonlarini, o'z his-tuyg'ularini, maqsad va fikrlarini ochib bergani buning dalilidir.

9. Shafolat Rahmatulla Termiziyning tarixiy mavzudagi she'rlarida tarixiylik tamoyillari va me'yorlariga amal qilinishi, qahramonlar faoliyati, ichki dunyosi davr va muhitning eng ustuvor, yetakchi jarayonlari dialektikasi bilan aloqadorlikda ochib berilgan. Jumladan, "Beruniyga", "Temur va Hofiz", "Termiziylar", "Alpomish" singari she'rlaridagi tarixiy obrazlarga yondashuvda ijodkorning badiiy

tafakkuri prizmasi orqali tarixning haqqoniy lirik tasviri, badiiy manzaralari kitobxon ko'z o'ngida gavdalanishini ta'kidlash kerak. Shafolat Rahmatulla Termiziyning Muftiy Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlariga bag'ishlangan "Maktub", shoir Tesha Saydaliyevga bag'ishlov tarzda yozilgan "Shoir Saydaliyev cho'kkan kun yozilgan yo'qlov", "Ona", "Onajon", "Singlimga", kabi, Ra'no Uzoqovaning "Dugonamga", Ukrain qizi" singari ko'plab she'riy asarlarda zamondoshlar obrazining xarakteri, dunyoqarashi, ichki dunyosi tabiat yoki ijtimoiy-madaniy muhit o'rtasidagi o'ziga xos aloqadorlikda poetik ifodalanishi, badiiy obrazlar tizimi orqali ijodkorlarning badiiy-estetik tafakkur ko'lamini va individual uslubi ko'rsatib berildi.

10. Iste'dodli shoir Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodida insonning ichki iztiroblari, tuyg'ulari va kechinmalari bir qadar moddiylandi, uning jo'shqin, rangin, folklorizmga yo'g'rilgan falsafiy she'rlari mustaqillik davri adabiyoti rivojida o'ziga xos hissa bo'lib qo'shildi. Shu bilan birga ular lirikasi inson hayoti va a'molini tahrir etuvchi, e'tiqodga eltuvchi ko'zga vazifasini bajardi.

11. Ra'no Uzoqova she'riyati ruhiy kechinmalarga boyligi, tuyg'ularning tozaligi, hissiyotlari quyuqligi bilan boshqa shoiralardan ajralib turadi. Shoira lirikasida haqiqat va erk, poklik va muhabbat izlagan yurakning otashin isyoni, cheksiz talpinishi, jonsarakligi ko'zga tashlanadi. Mana shu xususiyat uning she'riyatidagi ruhiy-hissiy pafosni, ayol qalbidagi hissiy bo'hronlarning shiddatini ko'rsatadi. Uning har bir misrasida o'zgacha harorat, yoniq yurakning qaynoq isyonlari yonib turadi.

**АУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И
ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАИТОВА ЮЛДУЗ УКТАМОВНА

**ГАРМОНИЯ ПСИХИКИ ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ И
ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ
УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**
(на примере произведений Рано Узоковой и Шафоата Рахматуллы
Термизи)

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/ Fil2861.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Пардаев Кудлош Узокович**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Каримов Баходир Нурметович**
доктор филологических наук, профессор

Давлатова Адиба Рахматовна
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, e-mail: (www.tsuull.uz) monitoring@navoiy-uni.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за №____). (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44 (www.tsuull.uz)).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(протокол реестра № _____ от «__» _____ 2024 года).

Х.А.Дадабоев
Председатель Научного совета по присуждению
учёных степеней, доктор филологических наук,
профессор

С.Х.Мухамедова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
филологических наук, профессор

Н.А.Жабборов
Председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней,
доктор филологических наук, профессор

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Необходимость изучения, глубокого осмысления в контексте психики творческой личности проблем, присущих анализу художественного произведения в истории мирового литературно-эстетического мышления, ставит на повестку дня серьезные вопросы современной филологии. Вопрос о психике творческой личности в художественной литературе имеет важное значение в поэзии в том смысле, что широкомасштабное исследование на примере лирики поэтов, создавших школу, выявляет индивидуальные особенности, присущие лаборатории их творчества, приводит к новым научно-теоретическим выводам в литературоведении. Ведь масштабное исследование прозаических произведений на основе четкой теоретической базы является одной из актуальных проблем мирового литературоведения.

В мировой литературе немало исследований, посвященных новому анализу и глубокому пониманию исторической эволюции вопроса гармонии психики творческой личности и художественной интерпретации на примере образов и мотивов. В поэзии трансформация роли психики в преобразовании формы также является важным фактором, определяющим специфику поэзии определенного периода. В процессе аналитического преобразования психики творческой личности важно детально разобраться в проблемах литературной среды, социально-духовной жизни и определить закономерности, присущие поэтическому образу мышления человека. Приобретает все большую актуальность последовательное продолжение исследований в этом направлении на уровне современных требований к литературоведению. “Намечены такие благородные цели, как формирование целостного представления о жизни и научно-творческой деятельности великих ученых и мыслителей, воспитание подрастающего поколения в духе гуманистических идей, национальной гордости и уважения”⁵¹.

Системное изучение лирики поэтов, создавших и создающих в специфическом стилистическом направлении в контексте проблемы психики творческой личности дает толчок к новым теоретическим выводам о современной узбекской поэзии. Эти научные исследования раскрывают национальный дух, идеальный жизненный путь наших великих мыслителей-предков, народный пафос, социальную и индивидуальную психологию личности, возможность осветить культурный колорит эпохи в масштабе поэтической интерпретации. Выбранные в качестве объекта исследования Рано Узокова творила в 30-40-х годах XX века, тогда как Шафоат Рахматулла Термизи - в период с 70-х годов XX века до начала XXI века. Выбор поэзии этих двух творцов в качестве объекта исследования можно объяснить следующими аспектами: народность их поэзии, специфика, характерная для колорита Сурхона, ясность и простота языка произведений, в лирике которых

⁵¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат, маданиятни ривожлантириш – халкимиз маънавий оламини юксалтиришининг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси //Халқ сўзи. – Тошкент, 4 августа 2017 года.

выражена их судьба, переживания, семейное окружение, внутренняя психика, сходство, а также то, что они не подвергались изучению в литературоведении в качестве объекта специального исследования. Роль Рано Узоковой и Шафоата Рахматуллы Термизи в развитии национальной литературы, выражении национального духа в многовековых образцах устного народного творчества нашего народа, базирования на опыт классической поэзии и мирового художественно-эстетического мышления, проведения исследований способов выражения национального духа в поэзии творцов являются важнейшими достижениями узбекского литературоведения.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2017 года №УП-4958 "О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования", от 9 октября 2019 года №УП-5847 "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года", от 21 октября 2019 года №УП-5850 "О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка", Постановлениях от 13 сентября 2017 года №ПП-3271 "О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и продвижению культуры чтения", от 5 апреля 2018 года №ПП-3652 "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Союза писателей Узбекистана", выступлениях Президента Республики Узбекистан от 3 августа 2017 года на встрече с представителями творческой интеллигенции страны, поручениях от 20 мая 2020 года во время посещения Аллеи писателей в Ташкенте по повышению влияния литературы, а также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики: I. "Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информационного общества и демократического государства".

Степень изученности проблемы. В исследованиях, посвященных поэтическим произведениям в узбекском литературоведении, много изысканий, посвященных природе и интерпретации художественных образов, охвату темы, лирическим переживаниям и интерпретации психики творца⁵².

⁵² Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза (Адабий-танкидий мақолалар). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979; Гафуров И. Лириканинг юраги. Адабий ўйлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1982; Қахрамонов Қ. Адабий танкид: янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Қахрамонов Қ. Қушдан илдим олдим қанотни гулдан // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2014. №16; Мамажонов С. Шеърят баҳсида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982; Акрамов Б. Шеърят гавҳари (Лирикада образ муаммоси). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979; Курбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеъриятида образлилик. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент: 2005; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадий тафаккури тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. (DSc) ...дис. автореф. – Тошкент: 2017; Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010; o'sha muallif. Адабиёт ва миллий маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2015; o'sha muallif. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015; o'sha muallif. "Ўткан кунлар"да миллий рух ифодаси. //

